



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
PAXTACHI TUMANI
1-SEKTORI

Paxtachi tumani, Mirzo Olim mahallasi, Tel: (93) 612 28 12

2023-yil 20 - may 362 -son

Xalq deputatlar tuman Kengashi
kotibiyati muduri R.Magripovaga

A X B O R O T N O M A

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi 2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ -408-sonli qaroriga muvofiq mahalla infratuzilmasini rivojlantirish Dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan, 1-sektor hududida quydagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan Mirzo Olim mahallasi Bunyodkor ko‘chasini maktab va bog‘chaga olib boruvchi 1 km masofasi asfalt qilinib tugatildi, Mirzo Nodim maxallasining Ibrat va Registon ko‘chalariga jami 4 km toza ichimlik suvi o‘tkazildi. Burqut mahallasini Yangi obod ko‘chasida yashovchi 66 ta xonadonga jami 2,7 km toza ichimlik suvi o‘tkazildi. Yobu mahallasi Iqbol ko‘chasiga jami 3 km toza ichimlik suvi tarmog‘i o‘tkazildi. Bundan tashqari Gulshan mahallasining Tong, 21 asr xamda Meros ko‘chalaridagi yaroqsiz simyog‘ochlar o‘rniga 68 dona temir-beton ustunlar olib kelingan, 40 donasi o‘rnatilgan. Ishlar davom etmoqda. To‘g‘olon mahallasining Marifat ko‘chasiga jami 2,4 km, Tinchlik mahallasining Ezoz, Terakzor hamda Shukrona ko‘chalariga jami 3,6 km toza ichimlik suvi tarmog‘i o‘tkazildi. Hunarmand mahallasini TP-P-157 transformator punktiga qo‘shimcha, 1-dona KTPS-100/10 kV transformator punkti o‘rnatildi. Mirzo Nodim mahalla fuqarolar yig‘ini mahalla binosi qayta rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Shu jumladan Qo‘shhovuz mahallasining 1,1 km uzunlikdagi ichki yo‘llari, To‘g‘olon mahallasidagi Mari’fat va Kelajak ko‘chalarining 1,4 km masofasi asfalt qilinib tugatildi.

Paxtachi tuman hokimi,

1-sektor rahbari:

M.Xamdamov



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PROKURATURASI
SAMARQAND VILOYAT
PAXTACHI TUMAN
PROKURATURASI**

Paxtachi tuman hokimi,
Xalq deputatlari kengashi raisi

M.Y.Hamdamovga

704114, Ziyovuddin sh., M.Raimqulov ko'chsi, 33-uy

2023 yil "19" may

№ 10.2/43-23-

A X B O R O T N O M A

Tuman prokuraturasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2021 yilgi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-43-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini, konsolidatsiyalashgan budget mablag'lari va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davlat dasturlarini o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirish, mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash va nazorat qilishning yangi tizimini joriy etish borasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 18.12.2021 yildagi 194-7-0-Q/21-sonli hamda tuman hokimining 24.12.2021 yildagi 116-7-98-Q/21-sonli qarorlari qabul qilinib, ushbu qaror asosida tuman prokuraturasida qurilish shtabi tashkil etilib, shtab a'zolari va ishchi guruhi tarkibi tuzilgan va qaror bilan shtab a'zolari va ishchi guruhiga bir qator vazifalar yuklatilgan.

Jumladan, shtab tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2022 yildagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-sonli qarori ijrosi nazoratga olingan bo'lib, bu borada bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, 2022-2023 yillarda Paxtachi tumanidagi mahallalar ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida bir qator ishlarni

amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, buyurtmachilar viloyat "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi" DUK, "Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlarini ta'mirlash bo'yicha" UK, "Samarqand hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ, "Hududgaz Samarqand" GTF va viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi buyurtmalariga asosan tumanda jami 24 ta ob'ektlarda qurilish ta'mirlash ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, shulardan mahallalar ichki avtomobil yo'llari infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 8 ta MFYning ichki yo'llarini joriy ta'mirlash (tumandagi "Mirzo Olim" MFYdagi "Bunyodkor" ko'chasini maktab va bog'chaga olib boruvchi 1,562 km. qismini, "Do'ng" MFYdagi "Ko'ktosh" qabristoni yo'li va "Qadriyat" ko'chasi asosiy yo'lini 2,906 km. qismini, "Boltali" MFYdagi 2,670 km. ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash va beton ariq va tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish, "Zarafshon" MFYdagi "Xalovat", "Orzu1" va "Orzu 2" ko'chalaridagi maktab va bog'chaga olib boruvchi 2,126 km. yo'lini, "Taraqqiyot" va "Gulobod" MFYlardagi 8-son umumta'lim maktabi va 13-MTTga olib boradigan asosiy "Turon" ko'chasi yo'lini 1,203 km. qismini, "Naxripay" MFYdagi 12 va 47-son umumta'lim maktablarga olib boradigan asosiy "Oltinsoy" ko'chasi yo'lining 2,090 km. qismini, "Saroy" MFYdagi "Ziyolilar" ko'chasi yo'lining 2,125 km. qismini, "Toshko'prik" MFYdagi ichki yo'llarining 1,742 km. qismini), 11 ta MFYda aholi uchun toza ichimlik suvi tarmoqlarini tortish ("Yobu" MFY "Iqbol" ko'chasiga, "Mirzo Nodim" MFYning "Ibrat" va "Registon" ko'chalarida, "O'krash" MFYning "Bektub", "Bektub" 1 va "Yangi O'zbekiston" ko'chasining 417 ta xonadonni, "Yangi olam" ko'chasidagi 68 ta xonadonni, "Navbahor" ko'chasidagi 83 ta xonadonlarga ichimlik suvi tarmog'i tortish, "Bog'oloni", "Qaynarbuloq" MFYlarda, "Barkamol" va "E'tirof" ko'chalariga toza ichimlik suv tarmog'i tortish, "Chorgo'sha" MFYning "Do'stparvar" ko'chasini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida mavjud suv saqlash inshootini rekonstruksiya qilish, "Xayit Elbegi" MFYda "Afrosiyob", "Baraka", "Tafakkur" ko'chalari hududida ichimlik suv tarmog'i tortish, "Suluvqo'rg'on" mahallasi hududida 3 km ichimlik suv tarmog'i tortish, "Mirza Salimiy" MFYdagi "Xurriyat", "Nurxayot", "Katta bog'" ko'chalariga, "Mirzo Ulug'bek" MFYdagi "Samarqand" ko'chasiga, "Burqut" MFYdagi "Yangi obod" ko'chasida yashovchi 66 ta xonadonga), 2 ta MFYda elektr energiyasi ta'minotini yo'lga qo'yish ("Gulshan" MFYdagi "Tong" va "21 asr" hamda "Meros" ko'chalaridagi yaroqsiz simyog'ochlarni hamda "Keshtali" mahalla hududidagi eski simyog'ochlarni beton tayanch ustunlariga almashtirish, yangi transformator qo'yish va zamonaviy elektr tarmoq tortish) hamda 3 ta MFYda boshqa turdagi qurilish ishlari ("Bo'ston" MFYdagi 20-son umuta'lim maktabida mini futbol maydonini ta'mirlash, "Obodon" MFYdagi "Nurli", "Temir Malik" ko'chalarida tungi

yoritkichlar va piyodalar yo'lagi hamda "Mirkan" MFY, "Ziyovuddin" shaharchasi va "Boltali" MFY yo'nalishidagi ko'chaning 25-son umumta'lim maktabdan "Mirkan" qishlog'ining oxirgi ko'chasi, ya'ni, "Qadriyat-1" ko'chasigacha 2 km bo'lgan masofaga katta yo'l yoqasidan piyodalar yo'lagini yotqizish) rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda "Gulshan" va "Keshtali" MFYlarda elektr tarmoqlarini tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda, qolgan barcha ob'ektlarda qurilish ishlari yakuniga yetkazilib foydalanishga topshirilgan.

Mazkur qurilish ishlarini 2-sektor kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida tumandagi 2-sektor hududida joylashgan "Boltali" MFYda 1 km ichki ko'chalariga asfalt qoplamasi yotqizish, 1 km qismini shag'allashtirish, 1 km 40 metr beton ariq ishlarini amalga oshirish, "Bog'oloni" MFY hamda "Qaynarbuloq" MFYdagi "Barkamol" va "E'tirof" ko'chalariga toza ichimlik suv tarmog'i tortish, "Chorgo'sha" MFYning "Do'stparvar" ko'chasini ichimlik suvi bilan ta'minlab, mavjud suv saqlash inshootini rekonstruksiya qilish, "O'krash" MFYning "Bektup", Yangi O'zbekiston va "Jasorat" ko'chalarini ichimlik suvi bilan ta'minlash, "Do'ng" MFYdagi "Ko'ktosh" qabristonining yo'li va "Qadriyat" ko'chasi asosiy yo'lining 2,906 km. qismini asfalthash, "Zarafshon" MFYdagi "Xalovat", "Orzu-1" va "Orzu-2" ko'chalaridagi umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim tashkilotiga olib boruvchi 2,126 km. yo'lini asfalt yotqizish ishlari yakuniga yetkazilgan. Hozirgi kunda "Keshtali" MFYda elektr tarmoqlarini tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Joriy yilning o'tgan davri davomida tuman prokuraturasida tuzilgan shtab tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2022 yildagi PQ-408-sonli qarorining ijrosini ta'minlash bo'yicha, dasturning o'z vaqtida, to'liq va sifatli ijro etilishi, har bir loyiha bo'yicha mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi, qurilish-pudrat ishlari sifatli bajarilishi hamda xarid qilish tartib-tamoyillari qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida 5 nafar mansabdor shaxslar rasman ogohlantirilgan. Aniqlangan qonun buzilishlar, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan 1 ta taqdimnoma kiritilgan. 1 nafar shaxs intizomiy, 8 nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Qo'pol qonunbuzilish holatlari bo'yicha 1 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Bundan tashqari, ishchi guruh tomonidan qurilish ishlari amalga oshirilayotgan ob'ektlarda olib borilgan monitoring davomida 74,5 mln. so'mlik sifatsiz hamda 4 ta ob'ektda 7,1 mln. so'mlik qo'shib yozish

ishlari aniqlanib, bugungi kun holatida mazkur kamchiliklar to'liq bartaraf etilishi ta'minlangan.

Tuman prokuraturasi tomonidan mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar muntazam ravishda nazorat qilinib borilmoqda.

Tuman prokurori
adliya maslahatchisi

A handwritten signature in blue ink, consisting of several overlapping loops and a long horizontal stroke extending to the right.

G'.G'.Abduraxmonov



SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI 3-SEKTOR

(Mirza Salimiy mahallasi, Paxtachi tumani 2-son kasb-hunar maktabi)

Tel: 66-403-12-02 faks:231-98-61

2023 yil "15" may

№ 31/187

Xalq deputatlar tuman
kengash raisi
M.Y.Xamdamovga

Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan H i s o b o t

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi 2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ -408-sonli qaroriga muvofiq mahalla infratuzilmasini rivojlantirish Dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan, 3-sektor hududida quydagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan Taraqqiyot mahallasini Turon kuchasini 1.1km masofasi asfalt qilinib tugatildi, Naxripay maxallasini Oltinsoy kuchasi 2.0 km masofasi asfalt qilindi, Saroy maxallasining Ziyolilar kuchasida 2.0 km masofasi asfalt qilindi, Bundan tashqari aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida, Hayit Elbegi maxallasining Afrosiyob, Baraka, Tafakkur kuchalarini jami 4.0 km masofasiga toza ichimlik suvi o'tkazildi. Suluvqo'rg'on maxallasida 3.0 km uzunlikdagi yaroqsiz holga kelib qolgan ichimlik suv quvurlari almashtirildi, Mirza Salimiy maxallasidagi Xurriyat, Nurxayot, Kattabog' kuchalarida 8.0 km masofasiga toza ichimlik suvi o'tkazildi. Shu jumladan Obodon maxallasining Temurmaliq va Nurli yo'l kuchalariga piyodalar yulakchasi va tungi yoritgich chiroqlari 3.0 km masofada o'rnatildi.

Paxtachi tumani IIB boshlig'i,
3-sektor rahbari

M.Q.Ahmedov

Самарқанд вилояти
Пахтачи тумани
4-СЕКТОРИ



Samarqand viloyati
Paxtachi tumani
4-SEKTORI

Пахтачи тумани, Амир Темур МФЙ, "Ҳамид Олимжон" номли кўчаси Пахтачи туман "Педагогика" коллежи. тел: +99893-330-91-30. Email: paxtachi4-sektor@umail.uz

№ 157 2023 yil «10» март

**Xalq deputatlari Paxtachi
tumani Kengashi raisi
M.Ya.Hamdammovga**

Hisobot

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi 2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ -408-sonli qaroriga muvofiq mahalla infratuzilmasini rivojlantirish Dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan, 4-sektor hududida quydagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan

Toshko'prik mahallasidagi Abdulla Qaxxor va Narpay kuchalarining 1.7 km masofasidagi yo'llarni dastur asosida loyiha qiymati 940,8 mln so'mlik ta'mirlash va asfalt yotqizish ishlarini pudrachi NEW TECH SAMARQAND MCHJ tomonidan joriy yilning 30 mart sanasidan ishni boshlab, joriy yilning 02 aprel sanasida Abdulla Qaxxor va Narpay kuchalarining 1.7 km masofasidagi yo'llariga asfalt yotqizib berildi.

Buston maxallasi Binafsha ko'chasidagi 20-sonli umumiy ta'lim maktab hududida bolalar o'yingohini dastur asosida loyiha qiymati 416,1 mln so'mlik (mini futbol) maydonchasini pudrachi JAMSHIDJON UNIVERSAL SAVDO XK tomonidan yangidan qurilish ishlari joriy yilning 20 yanvaridan boshlanib, joriy yilning 25 aprel sanasida qo'rib foydalanishga topshirildi.

Ziyovuddin - Boltali mahallasi yo'nalishida Mirkan mahallasi hududidagi 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabidan, Qadriyat -1 ko'chasigacha 2.0 km masofasida piyodalar yo'lakchasi yotqizish dastur asosida loyiha qiymati 42,0 mln so'mlik bo'lgan piyodalar yo'lakchasi yotqizish ishlari pudrachi JAMSHIDJON UNIVERSAL SAVDO XK tomonidan 2022 yil 20 dekabr sanasida boshlanib, joriy yilning 25 mart sanasida yotqizish ishlari tugatib berildi.

Bundan tashqari aholini Mirzo Ulug'bek nomli mahallasi Samarqand ko'chasidagi 182 ta honadonda yashovchi 547 dan ortiq aholini tozza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida, 0.7 km masofasidan dastur asosida loyiha qiymati 55,0 mln so'mlik bo'lgan tozza ichimlik suvi quvuri tortib kelish ishlari joriy yilning mart oyidan boshlandi va ishlar davom etmoqda .

**Paxtachi tuman 4-sektor rahbari
DSI boshlig'i**

A.A.Turg'unov